

# "O'ZKIMYOSANOAT" AJDA TARMOQ KORXONALARI XOTIN-QIZLAR KENGASHLARI ISHTIROKIDA "JAMIYAT XOTIN-QIZLARI MANFAATLARINI SAMARALI TA'MINLASH" MAVZUSIDA ONLAYN MULOQOT O'TKAZILDI

// 16 July 2022 yil

<https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/xotin-qizlar-kengashi>



"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati xotin-qizlar boshlang'ich tashkiloti raisi S.Abduraxmanova boshchiligidagi tarmoq korxonalari xotin-qizlar boshlang'ich tashkiloti raislari hamda Xotin-qizlar kengashi a'zolari ishtirokida onlayn muloqot o'tkazildi.



Onlayn muloqotda tarmoq korxonalari boshlang'ich tashkiloti raislari tomonidan ishlab chiqilgan "Yo'l xarita"lari muhokama qilindi. Ularga tegishli o'zgartish va qo'shimchalar kiritish bo'yicha amaliy tavsiyalar berildi. Xususan, korxonalardagi xotin-qizlarning ijtimoiy ko'makka muhtoj qismini aniqlab olish, yosh oilalarga har tomonlama ko'maklashish, chora-tadbirlar rejasini puxta va manzilli tarzda ishlab chiqish ta'kidlandi.

Shuningdek, "O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati xotin-qizlar boshlang'ich tashkiloti raisi S.Abduraxmanova tomonidan korxonalarda faoliyat olib boradigan xotin-qizlar o'rtasida turli sport musobaqalari o'tkazish, malakali shifokorlar, psixologlarni jalb qilgan holda davra suhbatlari, semiran-treninglar tashkil etish, o'tkaziladigan ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarning soni va sifatini oshirish bo'yicha aniq takliflar bildirildi.